

SIROJIDDIN SIDQIY XONDAYLIQIY “SAD IRSHODI MULLO SIDQIY XONDAYLIQIY” VA “ZARBULMASALI SIDQIY” ASARLARINING QO'LYOZMA NUSXALARI VA ULARNING O'RGANILISHI

Musulmonova Gulshan To'liqinovna

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrası
1-bosqich tayanch doktoranti**

Тел: +998944018986

Email:musulmonovagulshan@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7089842>

Annotatsiya:

XX asr boshlarida yashab ijod etgan, ma'rifatparvar iste'dodli so'z san'atkorlardan biri Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiydir. Ushbu maqolada Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy va uning “Sad irshodi mullo Sidqiy Xondayliqiy” va “Zarbulmasali Sidqiy” asarlari qo'lyozmalari tarixi bilan bog'liq izlanishlarimizni e'tiboringizga havola etamiz.

Kalit so'zlar: qo'lyozma, xattot, Begali Qosimov, Asad Asil, qo'lyozma tavsifi.

Sidqiy Xondayliqiy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillaridan biridir. Sidqiy Xondayliqiy (taxallusi) asl ism-sharifi Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o'g'li 1884-yilda hozirgi Bo'stonliq tumani Xondayliq qishlog'ida tavallud topgan. Shoir, xattot, tarjimon bolgan, arab, fors tillarini o'rgangan. Ijodining boshlanishida “Shavkat”, “Shevan” taxalluslarida ham ijod qilgan, keyinchalik barcha asarlarida “Xondayliqiy” taxallusini qo'llaydi, qo'lyozmalarini esa o'zi “Sirojiddin Maxdum Sidqiy” nomi bilan ko'chirgan. Xattotlikka muhabbat qo'yib, zamonasining mashhur xattoti Muhammad Shohmurod kotibga shogird tushib, xattotlik sirlarini o'rgangan. Karimbek Kamiy, Xislat, Miskin, Toshqin, Tavallo kabi toshkentlik shoirlar bilan juda yaqin aloqa bo'lgan. Sidqiyning shoir sifatida shakllanishida Karimbek Kamiy va Xislatlarning xizmati katta ekanligini, “ularga ulfat bo'lib, rishtai muhabbatlariga mehr ayag'in band etganini, ulardan ancha kasbi maorif qilganini yozadi”. [3;326]

Shoir adabiy merosining o'rganilishi o'zi yashagan davrdan boshlangan. Uning asarlarini sadoqatli shogirdi sharqshunos va bibliograf olim Abdulla Nosirov O'zFA Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondiga keltirib topshiradi. 1984- yilda adabiy jamoatchilik shoir tavalludining 100 yilligini, 1994- yilda esa 110 yilligini keng miqyosda nishonladi. Shoir hayoti va ijodini o'rganish, qo'lyozmalarini hozirgi o'zbek yozuviga tabdil qilishda prof.

B.Qosimov, A.Jalolov, Asad Asil va R.Javharovalar kabi olimlarning xizmatlari kattadir. Shoir hayoti va ijodiga oid materiallar to'plash, qo'lyozmalarini fanga tadbiq etishda prof. B.Qosimovning qilgan xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Sidqiy hayoti va ijodi, asarlari tadqiqiga bag'ishlangan "Sirojiddin Sidqiy", "Din va dunyoni ushlagan shoir" (R.Javharova bilan birg.) kabi bir qancha maqolalari nashr etildi. 1984-yilda B.Qosimov so'zboshisi bilan chop etilgan "Navbahor" to'plamida shoir g'azallaridan, ijtimoiy lirik she'rlaridan, dostonlaridan namunalar berildi. 1998-yilda shoirning "Tanlangan asarlar"i nashr qilindi. Kitobga shoirning "Sad irshodi mullo Sidqiy", "Zarbulmasali Sidqiy", "Devoni Sidqiy", "Tuhfai Shavkat", "Savg'oti Shavkat", "Mezoni shariat", "Iktisob" kabi qo'lyozma asarlaridan namunalar keltirildi. B.Qosimov ushbu kitob so'zboshisida shunday yozadi: "Qo'lingizdagi kitob Sidqiyning mustaqillik davrida chop etilayotgan birinchi kitobi. Undagi asarlarni tanlashda shoirning turli davrda yozilgan xilma-xil yo'nalishdagi va janrdagi asarlari haqida umumiy tasavvur berishga harakat qildik. Shunga ko'ra oz-ozdan bo'lsa-da, xilma-xil asarlaridan namuna berildi. Ularni tahlil qilishga shoshmadik. Nari borsa, yo'nalishini tilga olib, manbani ko'rsatish bilan cheklandik. U haqda o'ylab ko'rishni o'quvchi ixtiyoriga qoldirdik. [6;31] Filologiya fanlari doktori A.Jalolovning "O'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti" (1978) va "Jadid adabiyotida milliy ozodlik va istiqloq g'oyalari"(1996) tadqiqotlarida XX boshlari o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalari bilan bir qatorda Sidqiy ijodiga ham alohida to'xtaladi. 1996-yilda olim A. R.Javharovanning "Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning adabiy merosi"[7] nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi.

Sirojiddin Sidqiy tug'ilgan Xondayliq qishlogida tug'ilgan yozuvchi va jurnalist Asad Asil xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Yozuvchi umrining o'ttiz yildan ziyod vaqtini Sidqiy hayoti va ijodini o'rganishga sarflagan. Yozuvchining 2008-yilda "Chirog'im men-Sidqiyman, Xondaqliqiyman!.." tarixiy, badiiy, publitsistik romani, 2019-yilda "Sirojiddin Maxdum Sidqiy Xondayliqiy" romanlar, hikoyalar, she'rlar to'plamini nashr ettirdi. Sidqiy – shoir, tarjimon, noshir, xattot. Uning bu jihatlari ko'pchilikka ma'lum; bosilgan yoki bosilmagan va notamom asarlari, tarjimalari va qayta-qayta ko'chirib nashr ettirgan kitoblari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Ammo Sidqiy Xondayliqiyning hamon ko'pchilikka noma'lum qolib kelayotgan va namunalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan ijod mahsullari borki, ularni ham kitobxonlar ommasiga yetkazish bu soha mutaxassislarining muhim burchidir. Xususan, Sidqiy tomonidan to'plangan xalq maqollari, qadimiy o'zbek so'zlari lug'ati, shoirlar, xattotlar, turli kishilar bilan yozishmalarini hali-hanuz qo'l tekkizilmagan xazinalar, deyish mumkin.[8] Shuncha ishlar

bajarilganligan bo'lsa-da, oldimizda shoir qo'lyozmalarini o'rganish, matniy jihatdan tadqiq qilish, hali to'liq o'rganilmagan asarlarini, jumladan, insho san'atining go'zal namunalaridan biri bo'lgan "Zarbulmasali Sidqiy" hamda xalq donishmandligining go'zal namunasi bo'lgan, pand-nasihath ruhida bitilgan "Sad irshodi mullo Sidqiy" (Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati", "Sad pand") kabi asarlarini matniy-qiyosiy jihatdan o'rganish masalari turibdi.

O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning asarlarining 20 dan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. Qo'lyozmalarining katta qismini shoirning o'zi ko'chirgan orginal dastxat asarlari tashkil qiladi. "Sad irshodi mullo Sidqiy" asarining yagona nusxasi O'ZRFA ShI qo'lyozmalar fondida №7629- inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu raqamli qo'lyozmaga adibning "Devoni Sidqiy" va "Iktisob" (Holoti Sidqiy" ilova qilingan) asarlari ham kiritilgan. Xati nasta'liq. Asarlar 1924-yilda Toshkentda ko'chirilgan. Qo'lyozma hajmi jami 67 varaq, shundan 7 varag'i "Sad irshodi mullo Sidqiy" (Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati") asari qo'lyozmasidir. Qo'lyozmada "Sad pand" nomi bilan ham berilgan. Asarlarga muallifning o'zi xattotlik qilgan. Ilk bor 1984-yilda nashr etilgan "Navbahor" to'plamida asardan ayrim parchalar berildi.

O'zRFA ShI Qo'lyozmalar fondining №7631-inventar raqami ostida saqlanayotgan "Sidqiyning notamom qolgan asarlari" nomli qo'lyozmaga Sirojiddin Sidqiyning tugallanmay qolgan asarlari kiritilgan. Maktab daftariga yozilgan 2 ta kichkina qo'lyozmada "Zarbulmasali Sidqiy" asari ham berilgan. Asar hajmi taxminan

8 varaq. Muallif dastxati. Asosan oddiy yozuvda ko'chirilgan. Harflari juda mayda, o'qish qiyin, husnixat qoidalariga rioya qilinmagan. "Zarbulmasali Sidqiy" oddiy maktab daftari varaqlariga, asosan, qizil va ba'zi yerlari qora siyoh bilan isloh qilingan eski o'zbek yozuvida ko'chirilgan. Muallif o'chirib, qaytadan yozgan joylari ko'pligini inobatga olsak, bu muallifning mashq daftari. Asar besh yuzdan ortiq maqol, matal va xalq naqlariga qo'yilgan savol va ularga to'g'ri, kinoya hamda kesatiq ma'nolaridagi izoh yoki javoblardan iborat.[6;29] Sirojiddin Sidqiy o'z didaktik qarashlarini, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarga munosabatini savol-javoblar orqali ifodalashga harakat qiladi.

"Zarbulmasali Sidqiy» asari 1932-yilda Toshkentda yozilgan va 1998-yilgacha hech qayerda nashr qilinmagan, u haqda ma'lumot ham berilmagan. 1998-yilda Begali Qosimov so'zboshisi bilan nashr etilgan "Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar "(1998) to'plamida ilk bor "Zarbulmasali Sidqiy" dan namunalar berildi. To'plamda jami 121 ta savol-javob berilgan bo'lib, 100 tasi O'zRFA ShI

qo'lyozmalar fondidagi nusxadan, qolgan 21 ta savol-javob Sirojiddin Sidqiyning kuyovi Obid ota qo'lida saqlanayotgan dastxat nusxadan olingan.[6; 293] Asar dastlab «Savol-javobli yuz so'z» nomi bilan yozila boshlagan. Muallif birinchi qismning musavvadasidayoq savol-javobni yuztaga yetkazib qo'yadi. Biroq boshqa bir daftarda ayni shu savol-javoblarning ko'pini she'riy parchalar bilan xulosalab, ularning miqdorini besh yuzdan oshirgan, bosh varaq hoshiyasiga «Zarbulmasali Sidqiy» deb yozib qo'ygan. Hozirda shulardan 268 tasi aniqlanib, jamlandi, 253 tasi esa hozirgacha noma'lumligicha turibdi.[6;29]

Xulosa qilib aytganda, “Sad irshodi mullo Sidqiy” va “Zarbulmasali Sidqiy” asarlaridan namunalar chop etilgan bo'lsa-da, asarlarning matniy-qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan, “faqat manbani ko'rsatish bilan cheklangan”. [6;31] “Zarbulmasali Sidqiy” asari matni hali to'lig'icha nashr etilmagan. Shoir didaktik asarlarining qayta nashr qilinmay, Sharqshunoslik institutida hamon qolib kelayotgani juda tashvishli holdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sidqiy Xondayliqiy. “Zarbulmasali Sidqiy” Inv.N^o7631. O'z Fa Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
2. Sidqiy Xondayliqiy. “Sad irshodi mullo Sidqiy”. Inv.N^o762. Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
3. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish - jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent. 2002 .324-342-bet.
4. B.Qosimov. R.Javharova “Din va dunyoni ushlagan shoir”. Sidqiy Xondayliqiy. 1998.3-32-bet.
5. Sidqiy Xondayliqiy. Navbahor. To'plam. 1984.
6. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. 1998.
7. Javharova R. S.S.Xondayliqiyning adabiy merosi. Dessertasiya. -T.: 1996.
8. Asad Asil . “Chaqmoqdek chaqnagan hayot”. “Sharq yulduzi”. 2014-4.